
Semantic and Linguocultural Features of Proverbs in the Korean and Uzbek Languages: A Comparative Analysis

Kholmirezayev Abdulaziz Bekmirza ugli

Abdulazizkeimyung@gmail.com

Lecturer, Department of Business,
Turan International University

Annotation *This article provides a comparative analysis of the semantic and linguocultural features of selected Korean proverbs and their meaningful counterparts in Uzbek. The study focuses on the following Korean proverbs: 가재는 게 편, 가지 많은 나무에 바람 잘 날 없다, 같은 값이면 다홍치마, 개구리 올챙이 적 생각 못한다, 고래 싸움에 새우 등 터진다. The research employs semantic, comparative, and linguocultural analysis methods. It examines the lexical composition of the proverbs, their literal and figurative meanings, imagery, and the national and cultural concepts expressed through these linguistic units. Particular attention is given to comparing the images used in Korean and Uzbek to express identical or similar life situations and identifying their common and distinctive features. The findings demonstrate that Korean and Uzbek proverbs share common semantic meanings related to human experience, moral values, and social relationships. However, the ways in which these meanings are expressed are closely connected with the national worldview, historical experience, lifestyle, and cultural characteristics of each nation. The results also highlight the linguocultural and communicative value of using proverbs in Korean language teaching.*

Keywords *Korean language, Uzbek language, proverb, 속담, paremiology, semantics, linguoculture, comparative analysis, national worldview*

Koreys va o'zbek tillaridagi maqollarning semantik va lingvomadaniy xususiyatlari: qiyosiy tahlil

Xolmirzayev Abdulaziz Bekmirza o'g'li

Abdulazizkeimyung@gmail.com

Biznes kafedrası o'qituvchisi,
Turan International University

Annotatsiya *Mazkur maqolada koreys tilidagi ayrim maqollarning semantik va lingvomadaniy xususiyatlari o'zbek tilidagi mazmunan yaqin maqol va iboralar bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot obyekti sifatida 가재는 게 편, 가지 많은 나무에 바람 잘 날 없다, 같은 값이면 다홍치마, 개구리 올챙이 적 생각 못한다, 고래 싸움에 새우 등 터진다 kabi koreys maqollari tanlangan. Tadqiqotda semantik, qiyosiy va lingvomadaniy tahlil metodlaridan foydalanilgan. Maqollarning lug'aviy tarkibi, to'g'ri va ko'chma ma'nolari, obrazlilik xususiyati hamda ular orqali ifodalangan milliy-madaniy qarashlar o'rganilgan. Shuningdek, koreys va o'zbek tillarida bir xil yoki o'xshash hayotiy vaziyatlarni ifodalashda qo'llanadigan obrazlar qiyoslanib, ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlangan. Tadqiqot natijasida ikki xalq maqollarida insoniy tajriba, axloqiy qarash va ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq umumiy semantik mazmunlar mavjudligi, biroq ularning ifodalanish shakli milliy dunyoqarash, tarixiy tajriba, turmush tarzi va madaniy xususiyatlar bilan*

chambarchas bog'liqligi aniqlandi. Olingan natijalar koreys tilini o'qitishda maqollardan foydalanishning lingvomadaniy va kommunikativ ahamiyatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar *Koreys tili, o'zbek tili, maqol, 속담, paremiologiya, semantika, lingvomadaniyat, qiyosiy tahlil, milliy dunyoqarash*

Семантические и лингвокультурологические особенности пословиц корейского и узбекского языков: сравнительный анализ

Холмирзаев Абдулазиз Бекмирза угли

Abdulazizkeimyung@gmail.com

Преподаватель кафедры бизнеса,
Международный университет Туран

Аннотация *В данной статье проводится сравнительный анализ семантических и лингвокультурных особенностей некоторых корейских пословиц и их смысловых аналогов в узбекском языке. Объектом исследования выбраны такие корейские пословицы, как 가재는 게 편, 가지 많은 나무에 바람 잘 날 없다, 깊은 값이면 다홍치마, 개구리 올챙이 적 생각 못한다, 고래 싸움에 새우 등 터진다. В исследовании применяются методы семантического, сравнительного и лингвокультурного анализа. Рассматриваются лексический состав пословиц, их прямое и переносное значения, образность, а также национально-культурные представления, выраженные посредством данных языковых единиц. Особое внимание уделяется сопоставлению образов, используемых в корейском и узбекском языках для выражения одинаковых или сходных жизненных ситуаций, а также выявлению их общих и отличительных характеристик. Результаты исследования показывают наличие общих семантических компонентов, связанных с человеческим опытом, нравственными представлениями и социальными отношениями. Вместе с тем способы их выражения тесно связаны с национальным мировоззрением, историческим опытом, образом жизни и культурными особенностями каждого народа. Полученные результаты подтверждают лингвокультурную и коммуникативную значимость использования пословиц в преподавании корейского языка.*

Ключевые слова *Корейский язык, узбекский язык, пословица, 속담, паремиология, семантика, лингвокультура, сравнительный анализ, национальное мировоззрение*

Kirish

Maqollar xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribasi, dunyoqarashi, axloqiy qarashlari va ijtimoiy munosabatlarini qisqa hamda obrazli shaklda ifodalovchi muhim til birliklaridan

biridir. Ular nafaqat tilning badiiy imkoniyatlarini namoyon etadi, balki muayyan xalqning madaniy qadriyatlari va turmush tarzini ham aks ettiradi. Shu sababli maqollarni o'rganish tilshunoslikning paremiologiya,

frazzeologiya, semantika va lingvomadaniyatshunoslik kabi yo'nalishlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy-madaniy xususiyatlarni o'rganish va saqlash masalalari tobora dolzarb bo'lib borayotgan hozirgi davrda og'zaki ijod namunalarini lingvistik nuqtayi nazardan tadqiq etish muhim masala sifatida maydonga chiqadi. Og'zaki ijodning sarmahsul turi maqol bo'lib, u millat va uning tili bilan birga tug'iladi, yashaydi; uning zamirida xalqning kechinmalari, dunyoviy tajribasi, falsafasi ifodalangan bo'ladi (Maftunaxon, 2023).

Maqollar so'z san'ati mahsuli sifatida o'z ma'nosida, ko'chma ma'noda va bar ikkala ma'noda qo'llanishi mumkin. Shuning uchun ular badiiy-tasviriy vositalarning xilma-xil shakllariga duch kelamiz. Ammo maqollarda o'xshatishning kam ishlatilishini, uning bu janr uchun xarakterli emasligini ham ko'ramiz. Maqollarni o'xshatishlar bilan o'zgartirib qo'llasak, odatda, ular o'z maqollik xususiyatini yo'qotadi (Mirzayev, Musoqulov, & Sarimsoqov, 2005).

Koreys tilida maqol 속담 (soktam) deb ataladi. Koreys maqollari kundalik muloqotda keng qo'llanib, turli ijtimoiy vaziyatlarga munosabat bildirish, kishiga maslahat berish, ogohlantirish yoki muayyan xatti-harakatni baholash vazifasini bajaradi. Ayniqsa, tabiat, hayvonot olami, oila va jamiyatga oid obrazlardan foydalanish koreys maqollarining muhim xususiyatlaridan biridir.

O'zbek xalq og'zaki ijodida ham maqollar alohida o'rin tutadi. O'zbek maqollarida mehnat, oila, qarindoshlik, do'stlik, insoniy munosabatlar, yaxshilik va yomonlik kabi mavzular keng yoritilgan. Koreys va o'zbek xalqlarining tarixiy va madaniy tajribasi turlicha bo'lsa-da, inson hayotidagi ko'plab vaziyatlar umumiy bo'lgani sababli ayrim maqollarda mazmuniy yaqinlikni kuzatish mumkin.

Mazkur tadqiqotning maqsadi koreys tilidagi beshta maqolning mazmunini ochib berish va ularni o'zbek tilidagi mazmunan yaqin

maqol hamda iboralar bilan qiyoslashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda koreys va o'zbek tillaridagi maqollarni qiyosiy o'rganish maqsadida semantik, qiyosiy va lingvomadaniy tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida koreys tilidagi beshta maqol tanlanib, ularning lug'aviy tarkibi, to'g'ri va ko'chma ma'nolari hamda ifodalagan konseptual mazmuni tahlil qilindi. Shuningdek, mazmun jihatidan yaqin o'zbek maqollari bilan qiyoslash orqali ikki tildagi umumiylik va farqlar aniqlandi.

Tahlil jarayonida maqollarda qo'llangan hayvonot, tabiat, oila va kiyim-kechak obrazlariga alohida e'tibor qaratildi. Mazkur obrazlarning koreys xalqining milliy dunyoqarashi va madaniy tajribasini ifodalashdagi o'rni lingvomadaniy jihatdan baholandi. Qiyosiy tahlil natijalari koreys va o'zbek

1. *가재는 게 편이다* maqoli so'zma-so'z tarjima qilinganda "Qisqichbaqa krab tarafida" degan ma'noni anglatadi. Bu yerda 가재 – daryo qisqichbaqasi, 게 – krab, 편 esa "taraf", "tomon" ma'nolarini bildiradi.

Maqolning ko'chma ma'nosi – o'ziga o'xshash yoki o'z guruhiga mansub bo'lgan kishining tarafini olish. Ya'ni inson ko'pincha o'ziga yaqin, o'xshash yoki manfaatlari bir bo'lgan kishini qo'llab-quvvatlashga moyil bo'ladi (국립국어원).

Masalan:

사람들은 결국 자기와 비슷한 사람의 편을 들기 마련이다. 가재는 게 편이라고 하지 않는가.

O'zbekcha mazmuni:

Odamlar oxir-oqibat o'ziga o'xshagan kishining tarafini oladi. "Qisqichbaqa krab tarafida" deb bejiz aytishmagan.

Ushbu maqolda hayvonot olamidagi ikki o'xshash jonivor – 가재 va 게 orqali insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabat ifodalangan.

Maqolning asosiy semantik yadrosi "o'xshashlik → yaqinlik → tarafkashlik" munosabatiga asoslanadi.

O'zbek tilida bunga mazmunan yaqin bo'lgan "Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi" maqolini keltirish mumkin. Har ikkala maqolda ham bir guruh yoki bir-biriga yaqin bo'lgan shaxslarning o'zaro himoya qilishi ifodalangan.

Biroq obrazlar turlicha. Koreys maqolida suv jonivorlari – qisqichbaqa va krab ishlatilgan bo'lsa, o'zbek maqolida qarg'a obrazi qo'llangan. Bu holat maqollarning umumiy g'oyasi insoniyatga xos bo'lsa-da, uning ifodalanish shakli milliy til va madaniyatga bog'liqligini ko'rsatadi.

2. 가지 많은 나무에 바람 잘 날 없다
maqolining mazmuni, 가지 많은 나무에
바람 잘 날 없다 maqoli so'zma-so'z:

"Shoxi ko'p daraxtda shamol tinmaydi."
degan ma'noni anglatadi.

Maqolning ko'chma ma'nosi esa mas'uliyat yoki tashvishlari ko'p bo'lgan kishining tinchligi kam bo'lishi bilan bog'liq. "Xususan, oilada farzandlar ko'p bo'lganda, ularning har biri bilan bog'liq alohida tashvish va mas'uliyat yuzaga kelishi sababli mazkur maqol ko'pincha oila va farzand tarbiyasi bilan bog'liq vaziyatlarda qo'llanadi." (국립국어원, 표준국어대사전)

Koreys tilida bu maqol ko'pincha ota-ona va farzandlar munosabati bilan bog'liq vaziyatlarda uchraydi. Daraxtning shoxlari qancha ko'p bo'lsa, shamol ta'sir qiladigan qismlar ham shuncha ko'p bo'ladi. Shunday qilib, daraxt obrazi orqali oila, shoxlar orqali esa oila a'zolari ramziy tarzda ifodalanadi.

Mazmun jihatidan o'zbek tilidagi "Bolali uy – bozor, bolasiz uy – mozor" maqoli bilan ma'lum darajada qiyoslash mumkin. Biroq ular bir xil ma'noni bermaydi. Koreys maqolida farzandlar ko'pligi bilan bog'liq tashvish va mas'uliyatga urg'u berilsa, o'zbek maqolida farzandli oilaning hayotiyiligi va quvonchiga ko'proq e'tibor qaratiladi.

Shu jihatdan mazkur maqol qiyosiy tahlil uchun qiziqarli misol hisoblanadi: bir xil "oilal va farzand" konsepti turli madaniyatlarda turlicha baholanishi mumkin.

3. 같은 값이면 다홍치마 maqolining semantik xususiyati 같은 값이면 다홍치마 maqolining so'zma-so'z ma'nosi: "Narxi bir xil bo'lsa, qizil ko'ylakni tanlagan ma'qul". Bu maqolda 다홍치마 – yorqin qizil rangdagi ayollar yubkasi yoki an'anaviy kiyim obrazi orqali bir xil sharoitda yaxshiroq, chiroyliroq yoki foydaliroq variantni tanlash g'oyasi ifodalanadi.

Maqolning asosiy mazmuni: agar ikki narsaning narxi yoki sharti bir xil bo'lsa, ulardan yaxshirog'ini tanlash tabiiy (최권진, 2007).

Masalan:

같은 가격이라면 품질이 더 좋은 제품을 사는 게 좋지. 같은 값이면 다홍치마잖아.

O'zbekcha:

Narxi bir xil bo'lsa, sifati yaxshiroq mahsulotni olgan ma'qul. Bir xil sharoitda yaxshisini tanlash kerak.

O'zbek tilida bu maqolga to'liq ekvivalent bo'lgan maqolni topish qiyin, biroq "Yaxshiga yondash, yomondan qoch" kabi mazmuniy birliklar bilan qiyoslash mumkin.

Bu maqolning lingvomadaniy jihati ayniqsa 다홍치마 obrazida namoyon bo'ladi. Bugungi kunda ushbu kiyim kundalik hayotda keng qo'llanmasa-da, an'anaviy koreys madaniyati bilan bog'liq obraz sifatida maqolda saqlanib qolgan. Demak, maqollar tilning tarixiy-madaniy xotirasini ham saqlab qoluvchi birliklardir.

4. 개구리 올챙이 적 생각 못한다 maqolining mazmuni;

개구리 올챙이 적 생각 못한다 maqoli:

"Qurbaqa o'zining itbaliq bo'lgan davrini eslay olmaydi" degan so'zma-so'z ma'noni anglatadi.

Bu maqolning ko'chma ma'nosi – inson o'zining avvalgi qiyinchiliklarini, kambag'allik yoki nochor holatini unutib, hozirgi mavqeidan

kelib chiqib boshqalarni tanqid qilishi (최권진, 2007).

Bu maqolda qurbaqaning rivojlanish jarayoni inson hayoti bilan qiyoslanadi. Qurbaqa dastlab 올챙이 (itbaliq) bo'ladi, keyinchalik esa katta qurbaqaga aylanadi. Ammo maqol insonning ham o'zining "itbaliq davri"ni unutmasligi kerakligini uqtiradi.

Masalan: 예전에는 나도 힘들었으면서 지금은 후배들을 무시한다. 개구리 올챙이 적 생각 못한다더니 딱 그 말이 맞다.

O'zbekcha:

O'zi ham ilgari qiynalgan, hozir esa kichiklarni mensimaydi. "Qurbaqa itbaliq bo'lganini unutadi" degan gap aynan shunga to'g'ri keladi.

O'zbek tilida mazmunan yaqin bo'lgan "Kecha nima bo'lganini unutma", "O'zing ham shunday eding" kabi ifodalar mavjud. Shuningdek, "Kattaga hurmat, kichikka izzat" kabi maqollar bilan ham ma'lum ma'noda qiyoslash mumkin.

Ushbu maqol insonning ijtimoiy mavqei o'zgarganidan keyin o'zining avvalgi holatini unutmasligi kerakligi haqidagi axloqiy g'oyani ilgari suradi. Shu sababli maqolda tanqidiy va tarbiyaviy funksiya bir vaqtning o'zida namoyon bo'ladi.

5. 고래 싸움에 새우 등 터진다 maqolining semantik xususiyatlari

고래 싸움에 새우 등 터진다 koreys tilidagi eng obrazli maqollardan biridir. Uning so'zma-so'z tarjimasini:

"Kitlar urushsa, krevetkaning beli yoriladi."

Maqolning ko'chma ma'nosi esa kuchli tomonlar o'rtasidagi kurash yoki nizodan kuchsiz tomon zarar ko'rishini anglatadi (최권진, 2007).

Bu maqolda uchta asosiy obraz mavjud:

고래 – kit;

싸움 – kurash, janjal;

새우 – mayda qisqichbaqasimon jonivor (krevetka).

Kit juda katta va kuchli jonivor sifatida, krevetka esa kichik va kuchsiz jonivor sifatida qarama-qarshi qo'yilgan. Shunday qilib, maqolda kuchli va kuchsiz tomon o'rtasidagi ijtimoiy munosabat hayvonlar obrazi orqali tasvirlangan.

O'zbek tilida ushbu maqolga juda yaqin mazmun "Ikki fil urishsa, o'rtada chumoli nobud bo'ladi" kabi ifodalar orqali berilishi mumkin. Shuningdek, "Ikki qo'chqorning boshi bir qozonda qaynamaydi" maqoli bilan ham qiyosiy jihatlar mavjud, biroq ikkinchi maqolda asosiy urg'u kuchlilar to'qnashuvining oqibatiga emas, ikki kuchli tomonning kelisha olmasligiga qaratilgan.

O'z navbatida o'zbek tili bilan deyarli ma'nosi yaqin maqolni ham keltirib o'tamiz. Jumladan, aynan yaxshilik va yomonlik leksemalari bilan ifodalanmagan bo'lsa ham, mazmun jihatidan shu mavzuga aloqador yana bir nechta maqollarni keltirishimiz mumkin.

Koreyscha: 비온뒤햇살이온다.

O'zbekcha tarjimasini: Yomg'irdan keyin quyosh chiqadi.

O'zbekcha ekvivalenti: Oyning o'n beshi qorong'u bo'lsa, O'n beshi yorug' bo'ladi.

Koreyscha: 저녁이낮을삼킨다.

O'zbekcha tarjimasini: Oqshom kunduzning toji.

O'zbekcha ekvivalenti: Har kechaning – kunduzi, Har kunduzning kechasi bor. Ushbu maqollar orqali xalq o'z tajribasidan kelib chiqqan holda mangu yomonlik va yovuzlik bo'lmasligi yoki har doim ham faqat yaxshilik bo'lavermasligini ifodalaydi. "Oyning o'n beshi qorong'i bo'lsa, O'n beshi yorug' bo'ladi" va "Har kechaning – kunduzi, Har kunduzning kechasi bor" maqollari orqali xalq har qanday yomonlik ketidan yaxshilik yoki qiyinchilik ketidan faravonlik kelishi tasvirlanadi (Bayonkhanova & Xvang, 2026).

Koreys maqolining muhim lingvomadaniy xususiyati shundaki, unda katta va kichik, kuchli va kuchsiz qarama-qarshiligi juda aniq obrazlar orqali berilgan. Kit va krevetka o'rtasidagi hajm va kuch farqi

maqolning mazmunini bir qarashdayoq anglash imkonini beradi.

6. Koreys va o'zbek maqollarining qiyosiy tahlili

Tahlil qilingan maqollar asosida koreys va o'zbek paremiologik birliklari o'rtasida bir qator umumiy va farqli jihatlarni ko'rish mumkin.

Birinchidan, har ikki tilda ham maqollar insonning kundalik hayotidagi real vaziyatlardan kelib chiqadi. Masalan, odamlarning o'ziga yaqin kishini qo'llab-quvvatlashi, oiladagi tashvishlar, yaxshi variantni tanlash, o'zining avvalgi holatini unutish yoki kuchlilar to'qnashuvidan kuchsizlarning zarar ko'rish kabi holatlar universal xarakterga ega.

Ikkinchidan, bu umumiy mazmunlar turli obrazlar yordamida ifodalanadi. Koreys tilida *가재, 게, 나무, 바람, 다홍치마, 개구리, 올챙이, 고래, 새우* kabi obrazlar faol ishlatilgan. O'zbek tilida esa *qarg'a, qo'y, bo'ri, tulki, chumoli, fil* kabi obrazlarning ko'p uchrashi kuzatiladi.

Uchinchidan, maqollarda xalqning madaniy tajribasi aks etadi. Ayniqsa, *같은 값이면 다홍치마* maqolidagi *다홍치마* obrazi koreys an'anaviy kiyim madaniyati bilan bog'liq bo'lsa, boshqa maqollarda tabiat va hayvonot olamiga oid obrazlar orqali xalqning kuzatuvlari ifodalangan.

To'rtinchidan, maqollar faqat axborot yetkazish vositasi emas. Ular suhbatdoshga baho berish, maslahat berish, ogohlantirish va xulosa chiqarish imkonini beradi. Shu sababli koreys tilini o'rganayotgan o'zbek tilidagi

talabalar uchun maqollarni o'zlashtirish faqat lug'at boyligini oshirish emas, balki koreys xalqining fikrlash tarzi va madaniy kontekstini tushunishga ham balki koreys xalqining fikrlash tarzi va madaniy kontekstini chuqurroq anglashga ham xizmat qiladi."

Xulosa

Koreys tilidagi maqollar qisqa shaklda katta mazmunni ifodalovchi, xalqning hayotiy tajribasi va madaniy qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan til birliklaridir. Mazkur tadqiqotda tahlil qilingan beshta maqol – *가재는 게 편, 가지 많은 나무에 바람 잘 날 없다, 같은 값이면 다홍치마, 개구리 올챙이 적 생각 못한다, 고래 싸움에 새우 등 터진다* – turli ijtimoiy va axloqiy vaziyatlarni obrazli tarzda ifodalaydi.

Qiyosiy tahlil natijasida koreys va o'zbek maqollarida umumiy insoniy tajriba asosida shakllangan semantik yaqinlik mavjudligi aniqlandi. Biroq mazkur mazmunning ifodalanishida milliy obrazlar, tarixiy tajriba va madaniy xususiyatlar muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, koreys maqollarini o'zbek tiliga tarjima qilishda faqat so'zma-so'z tarjima bilan cheklanib qolish ma'noni to'liq ochib bermasligi mumkin. Chunki maqolning asosiy mazmuni ko'pincha uning tarkibidagi obraz va madaniy kontekst bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli koreys tilini o'qitishda maqollarni semantik va lingvomadaniy jihatdan tahlil qilish o'quvchilarning nafaqat til kompetensiyasini, balki madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyasini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

References:

1. Bayonkhanova, I., & Xvang, S. D. (2026). Koreys va o'zbek xalq maqollarida odob me'yorlari va axloqiy qadriyatlarining mantiqiy-pragmatik talqini. *Koreys va o'zbek xalq maqollarida odob me'yorlari va axloqiy qadriyatlarining mantiqiy-pragmatik talqini*. 23-27. Samarqand: Samarqand davlat chet tillar instituti.
2. Maftunaxon, S. (2023). *Chorva nomlari asosida shakllangan o'zbek xalq maqollarining lingvopoetik va uslubiy xususiyatlari*.
3. Mirzayev, T., Musoqulov, A., & Sarimsoqov, B. (2005). *O'zbek xalq maqollari*. Toshkent: Sharq.

4. 국립국어원. (6.4.). *표준국어대사전*. 서울: 국립국어원.
5. 국립국어원. (6.4.). *표준국어대사전*. 국립국어원.
6. 최권진. (2007). *속담으로 배우는 한국어 2*. 서울: 한국문화사.